

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA ORGANLARI TIZIMIDA TOVARLARNING  
NAMUNA VA SINAMALARINI TASARRUF ETISH TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI  
TASDIQLASH HAQIDA**

Bojxona xizmati organlarida bojxona ekspertizasini o‘tkazish tartibini jahon standartlariga moslashtirish, namuna va sinama olish jarayonlarini soddalashtirish hamda yanada takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay imkoniyatlar yaratish, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilansinki:

a) tovarlar namunalari yoki sinamalarini olish mazkur tovarlarni identifikatsiyalash va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasiga binoan tovar kodini aniqlash maqsadlarida amalga oshiriladi;

b) tovarlar namunalari yoki sinamalarini tasarruf etish hamda bojxona ekspertizasini o‘tkazish uchun zarur sarflash materiallari davlat bojxona xizmati organlarining har yilgi iste‘molidan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda xarid qilinadi;

v) tovarlar namunalari yoki sinamalarini tovar partiyasining tarkibi va xususiyatlarini to‘liq ifodalashi hamda olingan namunalar yoki sinamalar, shuningdek, ma‘lumotlar ishonchligi uchun quyidagilar shaxsan javobgar hisoblanadi:

tovarlar erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda — bojxona organi mansabdor shaxsi;

tovar jismoniy shaxs yoki yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilganda — jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning mas‘ul etib tayinlangan xodimlari;

namunalar yoki sinamalarini olish surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari qarorlari asosida amalga oshirilganda — ushbu qarorlarda mas‘ul etib tayinlangan shaxslar.

2. O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazilayotgan tovarlardan namunalar yoki sinamalar tanlab olish, ularni bojxona laboratoriyalariga taqdim etish, tasarruf etish, saqlash hamda yo‘q qilish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tizimida tovarlarning namunalari va sinamalarini tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorov hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi raisi M.B. Azimov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 17-mart,  
145-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-martdagi 145-son qaroriga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tizimida tovarlarning namunalari va  
sinamalarini tasarruf etish tartibi to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o‘tkazilayotgan tovarlardan namunalar yoki sinamalarni tanlab olish, bojxona laboratoriyalariga taqdim etish, tasarruf etish, saqlash va yo‘q qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

**bojxona laboratoriyasi** — bojxona organlari tizimidagi bojxona ekspertizasini amalga oshirishga mo‘ljallangan maxsus laboratoriya;

**vakolatli organ** — qonunchilik hujjatlariga muvofiq tadqiqot (ekspertiza) tayinlash vakolatiga ega bo‘lgan surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari;

**yo‘llanma xati** — bojxona organi, vakolatli organlar, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tadqiqot (ekspertiza) tayinlash to‘g‘risidagi yozma yoki elektron murojaati;

**namuna** — bojxona maqsadlari uchun taqdim etilgan yoki tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv harakatlari, tergov va sud jarayonlaridagi tovar partiyasining tarkibi va xususiyatlarini to‘liq ifodalovchi tovar;

**namunalarni yoki sinamalarni yo‘q qilish** — namunalar yoki sinamalarni tovar sifatida belgilangan maqsadlarda ishlatishga yaroqsiz holatga keltirish (yoqib yuborish, ko‘mib tashlash va boshqalar);

**sinama** — bojxona maqsadlari uchun taqdim etilgan yoki tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv harakatlari, tergov va sud jarayonlaridagi tovar partiyasining tarkibi va xususiyatlarini to‘liq ifodalovchi tovarning minimal qismi;

**tadqiqot (ekspertiza)** — bojxona laboratoriyasi eksperti tomonidan fan, texnika va boshqa sohalaridagi maxsus bilimlar asosida namunalar yoki sinamalarni o‘rganish.

3. Namunalar yoki sinamalar tovarlarni identifikatsiyalash va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasiga (keyingi o‘rinlarda — TIF TN) binoan tovar kodini aniqlash maqsadlarida olinadi.

Namunalar yoki sinamalarni bojxona laboratoriyalarida tasarruf etish ushbu Nizomga [1-ilovaga](#) muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

4. Tovarlardan namunalar yoki sinamalarni olish usuli tovar turidan kelib chiqqan holda xalqaro standartlar, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda ular asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi (keyingi matnlarda — Davlat bojxona qo‘mitasi) tomonidan ishlab chiqilgan uslubga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Tovar namunalari yoki sinamalarini tasarruf etish hamda bojxona ekspertizasini o‘tkazish uchun zarur sarflash materiallari mazkur Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq bojxona organlarining har yilgi iste‘molidan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda xarid qilinadi.

## **2-bob. Namunalar yoki sinamalarni olish**

### **1-§. Tovar erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda namunalar yoki sinamalar olish tartibi**

6. Tadqiqot (ekspertiza) maqsadlari uchun erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarlardan namunalar yoki sinamalar olish bojxona organi boshlig‘i tomonidan mas‘ul etib tayinlangan bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan tovarga nisbatan vakolatga ega bo‘lgan shaxs, shuningdek, zaruratga ko‘ra (zaharli, toksik, kuchli ta‘sir qiluvchi tovarlar), mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi.

Bunda bojxona organi mansabdor shaxsi namunalar yoki sinamalar tovar partiyasining tarkibi va xususiyatlarini to‘liq ifodalash hamda olingan namunalar yoki sinamalar, shuningdek, ma‘lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

7. Namunalar yoki sinamalar uch nusxada olinadi va mazkur Nizomga [3-ilovaga](#) muvofiq shakl bo‘yicha bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan uchta nusxada namunalar yoki sinamalar olish dalolatnomasi tuziladi. Bunda dalolatnomaning:

birinchi nusxasi namunalar yoki sinamalar bilan birgalikda bojxona laboratoriyasiga shu kunning o‘zida yuboriladi;

ikkinchi nusxasi tovarga nisbatan vakolatlariga ega bo‘lgan shaxsga beriladi;

uchinchi nusxasi tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organida qoldiriladi.

8. Namunalar yoki sinamalarning har bir nusxasi mazkur Nizomga 4-ilovaga muvofiq qadoqlanadi va maxsus qadoq ustidagi jadval tovar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi hamda bojxona organi mansabdor shaxsining raqamlangan shaxsiy muhri bilan paketning belgilangan qismiga muhr bosiladi.

9. Namunalar yoki sinamalarni olishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi bo'yicha javobgarlik tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organi boshlig'i yoki vakolatli organning mas'ul xodimi hamda namunalar va sinamalarni olgan shaxsning zammisiga yuklanadi.

## **2-§. Tovar jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilayotganda namunalar yoki sinamalar olish**

10. Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tadqiqot (ekspertiza) maqsadlarida tovarlardan namunalar yoki sinamalar olish jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning mas'ul etib tayinlagan xodimlari tomonidan, zarurat yuzasidan (zaharli, toksik, kuchli ta'sir qiluvchi tovarlar) esa, mutaxassis ishtirokida olinadi.

Bunda jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning mas'ul etib tayinlagan xodimlari namunalar yoki sinamalar tovar partiyasining tarkibi va xususiyatlarini to'liq ifodalash hamda olingan namunalar yoki sinamalar, shuningdek, ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javob beradi.

11. Namunalar yoki sinamalar uch nuxxada olinib, yo'llanma xati orqali namunalar yoki sinamalar bilan bojxona laboratoriyasiga jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan tanlangan kuni yuboriladi.

Tovar miqdori uch nuxxada namunalar yoki sinamalar olish imkoniyatini bermasa, u holda tovardan bir nuxxada namuna yoki sinama olinib, yo'llanma xati orqali laboratoriyaga yuboriladi.

12. Namunalar yoki sinamalarning har bir nusxasi mazkur Nizomga 4-ilovaga muvofiq qadoqlanib, maxsus qadoq ustidagi jadval tovar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi hamda jismoniy yoki yuridik shaxsning mas'ul etib tayinlagan xodimlari tomonidan imzolanadi va paketning belgilangan qismiga muhr bosiladi.

13. Namunalar yoki sinamalarni olishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi bo'yicha javobgarlik tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning mas'ul etib tayinlagan xodimlari zimmasiga yuklanadi.

## **3-§. Surishtiruv, tergov, prokuratura, sud organlari qarorlari asosida namunalar yoki sinamalar olish**

14. Surishtiruv, tergov, prokuratura, sud organlari qarorlari asosida tovarlardan namunalar yoki sinamalar olish, ushbu qarorlarda mas'ul etib tayinlangan shaxs tomonidan xolislar, zaruratga ko'ra, mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi.

Bunda namunalarni (sinamalarni) olgan shaxs namunalar yoki sinamalar tovar partiyasi tarkibi va xususiyatlarini to'liq ifodalashini ta'minlashi shart hamda olingan namunalar yoki sinamalar, ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javob beradi.

15. Namunalar yoki sinamalar uch nuxxada olinib, ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq ikki nuxxada tuziladigan namunalar yoki sinamalar olish dalolatnomasini qarorda mas'ul etib tayinlangan shaxs rasmiylashtiradi hamda qarorda mas'ul etib tayinlangan shaxs, xolislar, shuningdek, zaruratga ko'ra esa, mutaxassis tomonidan imzolanadi.

Bunda dalolatnomaning birinchi nusxasi namunalar yoki sinamalar bilan birga bojxona laboratoriyasiga shu kunning o'zida yuboriladi, ikkinchi nusxasi qarorda mas'ul etib tayinlangan shaxsga beriladi.

16. Namunalar yoki sinamalarning har bir nusxasi mazkur Nizomga 4-ilovaga muvofiq qadoqlanadi va maxsus qadoq ustidagi jadval tovar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi hamda qarorda mas'ul etib tayinlangan shaxs, xolislar, shuningdek, zaruratga ko'ra, mutaxassis tomonidan paketning belgilangan qismi imzolanadi va qarorda mas'ul etib tayinlangan shaxsning muhri bosiladi.

17. Namunalar yoki sinamalarni olishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi bo'yicha javobgarlik tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan qarorda mas'ul etib tayinlangan shaxsga yuklatiladi.

## **3-bob. Namunalar yoki sinamalarni qabul qilish**

## **1-§. Tovar erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda namunalari yoki sinamalarini qabul qilish**

18. Tadqiqot (ekspertiza) bojxona postining bojxona laboratoriyasi eksperti tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, namunalari yoki sinamalar ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakldagi namunalari yoki sinamalar olish dalolatnomasi bilan birga namunalari yoki sinamalarini olgan bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan bojxona postining bojxona laboratoriyasi ekspertiga yetkaziladi.

Tadqiqot (ekspertiza) Davlat bojxona qo'mitasining yoki uning hududiy boshqarmalarining bojxona laboratoriyasi ekspertlari tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsa, tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organining yo'llanma xati, namunalari yoki sinamalar va ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakldagi namunalari yoki sinamalar olish dalolatnomasi bilan birga Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalarining bojxona laboratoriyasi ekspertlariga yetkaziladi.

Tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organi ushbu tadqiqot (ekspertiza) qaysi laboratoriyada o'tkazilishini ko'rsatib o'tadi.

19. Yo'llanma xatida quyidagi ma'lumotlar:

bojxona laboratoriyasiga hal qilish uchun qo'yilgan savollar;

miqdori ko'rsatilgan namunalari yoki sinamalar ro'yxati;

namunalari yoki sinamalar qadoqlangan maxsus qadoq identifikatsiya raqami;

har bir hujjatning raqami;

bojxona yuk deklaratsiyasining 7-grafasidagi raqami aks ettiriladi.

Yo'llanma xati tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organining boshlig'i yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolanadi.

20. Namunalari yoki sinamalar bojxona posti bojxona laboratoriyasiga kelib tushganda, bojxona laboratoriyasi eksperti taqdim etilgan namunalari yoki sinamalar ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq qadoqlanganligini tekshiradi.

Yo'llanma xati, namunalari yoki sinamalar va ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakldagi namunalari yoki sinamalar olish dalolatnomasi Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalarining bojxona laboratoriyasi ekspertlariga kelib tushganda, materiallarni qabul qilish va ekspertiza materiallari javoblarining jo'natilishiga mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq ekspertizaga yuborilgan va taqdim etilgan materiallar qadoqlanganligini va mazkur Nizomning 19-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlarni tekshirib chiqadi.

Ushbu Nizom talablarini buzgan holda rasmiylashtirilgan namunalari yoki sinamalar tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organiga kamchiliklarni bartaraf etish uchun kamchiliklar aniqlangan kunning o'zida qaytariladi.

Taqdim etilgan materiallar ushbu Nizom talablariga muvofiq kelsa, yo'llanma xatining ikkinchi nusxasiga qabul qilib olganlik to'g'risida belgi qo'yiladi hamda u tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organiga qaytariladi.

21. Namunalari yoki sinamalar deklaratsiya qilingan tovarga tegishli bo'lmasa, qadoqda tovarga nisbatan vakolatli shaxs imzosi bo'lmasa, bojxona laboratoriyasi ekspertlari qaytadan namunalari yoki sinamalar olishni tayinlash huquqiga ega, qaytadan namunalari yoki sinamalar olish ushbu Nizom bilan belgilangan tartibda, majburiy ravishda mutaxassis sifatida bojxona laboratoriyasi eksperti ishtirok etgan holda o'tkaziladi.

## **2-§. Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan tovar namunalarini (sinamalarini) qabul qilish tartibi**

22. Tadqiqot (ekspertiza) jismoniy yoki yuridik shaxslar murojaatiga asosan amalga oshirilayotganda, yo'llanma xati va namunalari yoki sinamalar Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalarining bojxona laboratoriyasi ekspertlariga yetkaziladi.

23. Yo'llanma xatida quyidagi ma'lumotlar:

bojxona laboratoriyasiga hal qilish uchun qo'yilgan savollar;

miqdori ko'rsatilgan namunalari yoki sinamalar ro'yxati;

namunalari yoki sinamalar qadoqlangan maxsus qadoqning identifikatsiya raqami;

namunalar yoki sinamalar tovarlarni tasniflash bo'yicha dastlabki qarorni qabul qilish uchun taqdim etilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining [371-moddasida](#) belgilangan ma'lumotlar majburiy tarzda aks ettirilishi kerak.

Yo'llanma xati tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning mas'ul rahbari tomonidan imzolanadi.

Yo'llanma xati namunalar yoki sinamalar bilan birga Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalarining bojxona laboratoriyasi ekspertlariga kelib tushganda, materiallarni qabul qilish va ekspertiza materiallari javoblarining jo'natilishiga mas'ul bo'lgan shaxs tomonidan ekspertizaga yuborilgan va taqdim etilgan materiallar mazkur Nizomga [4-ilovaga](#) muvofiq qadoqlanganligini va ushbu Nizomning [23-bandida](#) nazarda tutilgan ma'lumotlarning to'liqligini tekshirib chiqadi.

Ushbu Nizom talablarini buzgan holda rasmiylashtirilgan namunalar yoki sinamalar tadqiqotni (ekspertiza) tayinlagan jismoniy yoki yuridik shaxslarga kamchiliklarni bartaraf etish uchun qaytariladi.

Taqdim etilgan materiallar ushbu Nizom talablariga muvofiq kelgan holatlarda yo'llanma xati belgilangan tartibda qabul qilib olinadi.

### **3-§. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari qarorlari asosida yuborilgan tovar namunalarini (sinamalarini) qabul qilish tartibi**

24. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarining qarorlari asosida tayinlangan tadqiqotni (ekspertizani) Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalari ekspertlari amalga oshirayotgan bo'lsa, tadqiqotni (ekspertiza) tayinlagan organning qarori yo'llanma xati bilan birga Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalari ekspertlariga yetkaziladi.

25. Yo'llanma xati tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan vakolatli organ rahbariyati tomonidan imzolanadi.

26. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlarining qarorlarida belgilangan shaxs tomonidan namunalar yoki sinamalar tadqiqot (ekspertiza) uchun Davlat bojxona qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmalari bojxona laboratoriyasi ekspertlariga kelib tushganda, namunalar yoki sinamalar belgilangan tartibga muvofiq qadoqlanganligi tekshirib chiqiladi.

Ushbu Nizom talablarini buzgan holda rasmiylashtirilgan namunalar yoki sinamalarni yuborgan shaxsga kamchiliklarni bartaraf etish uchun qaytariladi.

## **4-bob. Namunalar yoki sinamalarni tasarruf etish**

### **1-§. "Erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarlar namunalari yoki sinamalarini tasarruf etish**

27. Tadqiqot (ekspertiza) natijasida tovarning bojxona laboratoriyasi eksperti tomonidan aniqlangan TIF TN kodi bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan kodga mos kelsa — ijobiy ekspertiza xulosasi yoki tovarning bojxona laboratoriyasi eksperti tomonidan aniqlangan TIF TN kodi bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan kodga mos kelmasa — salbiy ekspertiza xulosasi beriladi. Bojxona ekspertizasi yigirma ish kunigacha bo'lgan vaqtda o'tkaziladi.

28. Namunalar yoki sinamalar, shuningdek, ularning fizik-kimyoviy tadqiqotlar o'tkazilgandan so'ng qolgan qismlari (shunday tadqiqot o'tkazilgan holatda) quyidagi tartibda tasarruf etiladi:

salbiy ekspert xulosasi qabul qilinganda — tadqiq qilish uchun taqdim etilgan namunalar yoki sinamalarning va ularning qoldiqlarining barcha nusxalari bojxona laboratoriyasida qoldiriladi; ijobiy ekspert xulosasi qabul qilinganda — tadqiq qilish uchun taqdim etilgan namunalar yoki sinamalar va ularning qoldiqlari tovarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxsga qaytariladi.

29. Qaytarilishi lozim bo'lgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlari tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organi xodimiga qadoqlangan (muhrlangan) holda ekspertiza xulosasi berilgan kunning o'zida qaytariladi hamda ushbu mansabdor shaxs tomonidan yo'llanma xatining ikkinchi nusxasiga qabul qilib olganlik va miqdori to'g'risida belgi qo'yiladi. Belgi qo'yilgan yo'llanma xatining ikkinchi nusxasi bojxona laboratoriyasida qoladi.

Bojxona laboratoriyasidan olingan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlari tadqiqotni (ekspertizani) tayinlagan bojxona organi xodimi tomonidan tovarga nisbatan vakolatlariga ega bo'lgan shaxsga qaytariladi.

Agar qaytarib yuborilgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlariga taalluqli tadqiqot (ekspertiza) yuzasidan takroriy, qo'shimcha yoki kompleks tadqiqot (ekspertiza) o'tkazishga ehtiyoj tug'ilgan taqdirda, qaytarib yuborilgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlari saqlash qoidalariga rioya qilingan (qadoqlangan, muhrlangan) holda ekspertizaga yuborilishi shart.

Qo'shimcha bojxona ekspertizasi birinchi (avvalgi) bojxona ekspertizasi xulosasida mavjud bo'lgan kamchiliklarni to'ldirish uchun tayinlanadi va o'sha ekspertning o'zi yoki boshqa ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Xulosa asoslanmaganda yoxud uning asosidagi dalillar haqiqiy emas deb topilganda, takroriy bojxona ekspertizasi tayinlanadi.

Bojxona ekspertizasini ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazish bojxona ekspertizasini tayinlagan organ tomonidan belgilanadi.

30. Bojxona laboratoriyasida qoldirilgan namunalar yoki sinamalar tegishli bojxona organi yoki vakolatli organlar tomonidan tayinlangan qayta tadqiqot (ekspertiza) o'tkazishda ishlatilishi mumkin.

## **2-§. Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan tovarlar namunalari yoki sinamalarini tasarruf etish**

31. Namunalar yoki sinamalar, shuningdek, ularning fizik-kimyoviy tadqiqotlar o'tkazilgandan keyin qolgan qismlari jismoniy yoki yuridik shaxslarga qaytariladi. Bojxona ekspertizasi yigirma ish kunigacha bo'lgan vaqtda o'tkaziladi.

32. Qaytarilishi lozim bo'lgan namunalar yoki sinamalar va ularning qoldiqlari jismoniy yoki yuridik shaxsning mas'ul xodimiga qadoqlangan (muhrlangan) holda ekspertiza xulosasi berilgan kunning o'zida qaytariladi va ushbu xodim tomonidan yo'llanma xatining ikkinchi nusxasiga qabul qilib olganlik va miqdori to'g'risida belgi qo'yiladi. Belgi qo'yilgan yo'llanma xatining ikkinchi nusxasi bojxona laboratoriyasida qoladi.

Agar qaytarib yuborilgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlariga taalluqli tadqiqot (ekspertiza) yuzasidan takroriy, qo'shimcha yoki kompleks tadqiqotga (ekspertizaga) ehtiyoj tug'ilgan taqdirda, qaytarib yuborilgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlari saqlash qoidalariga rioya qilingan holda ekspertizaga yuborilishi shart.

Qo'shimcha bojxona ekspertizasi birinchi (avvalgi) bojxona ekspertizasi xulosasida mavjud bo'lgan kamchiliklarni to'ldirish uchun tayinlanadi va o'sha ekspertning o'zi yoki boshqa ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Xulosa asoslanmaganda yoxud uning asosidagi dalillar haqiqiy emas deb topilganda, takroriy bojxona ekspertizasi tayinlanadi.

Bojxona ekspertizasini ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazish bojxona ekspertizasini tayinlagan organ tomonidan belgilanadi.

33. Bir nusxada olingan (tovar miqdoridan kelib chiqqan holda imkoniyati mavjud bo'lmagan) namunalar yoki sinamalarning tadqiqot o'tkazilgandan so'ng qoldiqlari jismoniy va yuridik shaxslarga ushbu Nizomning [32-bandiga](#) muvofiq qaytariladi.

## **3-§. Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari qarorlari asosida yuborilgan tovarlar namunalari yoki sinamalarini tasarruf etish**

34. Namunalar yoki sinamalar, shuningdek, ularning fizik-kimyoviy tadqiqotlar o'tkazilgandan keyin qolgan qismlari surishtiruv, tergov, prokuratura, sud organlari qarorlarida namunalarni taqdim qilishga mas'ul etib tayinlangan shaxsga, ya'ni namunalarni bojxona laboratoriyasiga yuborgan shaxsga qaytariladi. Bojxona ekspertizasi surishtiruv, tergov, prokuratura, sud organlari qarorlari asosida o'ttiz ish kunigacha bo'lgan vaqtda o'tkaziladi.

35. Qaytarilishi lozim bo'lgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlari namuna uchun mas'ul etib tayinlangan shaxsga qadoqlangan (muhrlangan) holda ekspertiza xulosasi berilgan kunning o'zida qaytariladi va ushbu shaxs tomonidan yo'llanma xatining ikkinchi nusxasiga

qabul qilib olganlik va miqdori to'g'risida belgi qo'yiladi. Belgi qo'yilgan yo'llanma xatining ikkinchi nusxasi bojxona laboratoriyasida qoladi.

Agar qaytarib yuborilgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlariga taalluqli tadqiqot (ekspertiza) yuzasidan takroriy, qo'shimcha yoki kompleks tadqiqotga (ekspertizaga) ehtiyoj tug'ilgan taqdirda, qaytarib yuborilgan namunalar yoki sinamalar va (yoki) ularning qoldiqlari saqlash qoidalariga rioya qilingan holda ekspertizaga yuborilishi shart.

Qo'shimcha bojxona ekspertizasi birinchi (avvalgi) bojxona ekspertizasi xulosasida mavjud bo'lgan kamchiliklarni to'ldirish uchun tayinlanadi va o'sha ekspertning o'zi yoki boshqa ekspert yoxud ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Xulosa asoslanmaganda yoxud uning asosidagi dalillar haqiqiy emas deb topilganda takroriy bojxona ekspertizasi tayinlanadi.

Bojxona ekspertizasini ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazish bojxona ekspertizasini tayinlagan organ tomonidan belgilanadi.

### **5-bob. Namunalar yoki sinamalarni saqlash**

36. Bojxona laboratoriyasida qoldirilgan namunalar yoki sinamalar tovarning iste'mol idishida ko'rsatilgan saqlash (yaroqlilik) muddatlariga muvofiq saqlanadi. Bunday ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, ularning saqlash muddatlari tovarga tegishli bo'lgan xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi standartlari bilan belgilangan muddatlarni aniqlagan holda, quyidagi muddatlardan oshib ketmagan holda saqlanadi:

bojxona laboratoriyasida salbiy ekspert xulosasi qabul qilinsa, xulosa berilgan sanadan boshlab — 3 yil davomida;

tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarining namunalari (sinamalarini) saqlash muddati — ular bojxona laboratoriyasiga taqdim qilingan vaqtdan boshlab 1 oy davomida;

agar namunalar yoki sinamalarning yaroqlilik muddati bojxona laboratoriyasiga topshirilgandan boshlab, ushbu bandeda belgilangan saqlash muddati oralig'ida tugasa va bojxona ekspertizasida ularning qadoqlaridagi, yorliqlaridagi ma'lumotlardan foydalanilgan bo'lsa, u holda ushbu qadoqlar va yorliqlar qolgan belgilangan muddatgacha saqlanadi.

37. Hududiy bojxona boshqarma va bojxona postida namunalar yoki sinamalarni saqlash hududiy bojxona boshqarmalari va "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi boshlig'ining topshirig'iga asosan belgilangan moddiy javobgar shaxs javobgarligi ostida amalga oshiriladi.

38. Davlat bojxona qo'mitasida namunalar yoki sinamalarni saqlash mas'ul boshqarma moddiy javobgar shaxsining javobgarligi ostida amalga oshiriladi.

39. Namunalar yoki sinamalar tovarning TIF TN kodi bo'yicha tasniflanishiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar o'zgarishini ta'minlovchi, yong'in xavfsizligiga javob beruvchi, namlikdan va tashqi muhitning noqulay omillaridan himoyalangan sharoitlarda saqlanishi kerak.

### **6-bob. Namunalar yoki sinamalarni yo'q qilish**

40. Namunalar yoki sinamalarni saqlash muddati tugagach, ular yo'q qilinadi.

41. Mas'ul boshqarma hududiy bojxona boshqarmasi va bojxona postining mas'ul shaxsi har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan, saqlash muddati o'tib ketgan (agar shunday holatlar bo'lsa) namunalar yoki sinamalarni yo'q qilish to'g'risida ushbu mas'ul boshqarma boshlig'i (post boshlig'i) nomiga bildirgi beradi.

Bildirgida tovarning nomi, soni, bojxona laboratoriyasining tegishli xulosasi ro'yxatga olingan raqami ko'rsatilgan holda, saqlash muddati o'tib ketgan namunalar, sinamalar ro'yxati ilova qilinadi.

42. Namunalar yoki sinamalarni yo'q qilish uchun mas'ul boshqarma boshlig'ining (post boshlig'ining) yozma ko'rsatmasiga ko'ra tarkibida kamida uchta bojxona xodimlaridan iborat bo'lgan komissiya tuziladi.

43. Namunalar yoki sinamalarni yo'q qilish usuli namunalar yoki sinamalar yo'q qilinayotganda vujudga keluvchi moddalarning atrof-muhitga ta'siri, shuningdek, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tegishli komissiya a'zolari tomonidan tanlanadi.

Namunalar yoki sinamalarni yo‘q qilish uchun namunalar va sinamalarni yoqish, parchalash, maydalash kabi usullardan foydalaniladi.

44. Komissiya namunalar yoki sinamalarni yo‘q qilgach, bu to‘g‘risida ushbu Nizomga 5-[ilovaga](#) muvofiq shaklda namunalar yoki sinamalarni yo‘q qilish to‘g‘risida dalolatnoma tuzadi. Dalolatnomada har bir namunani (sinamani) yo‘q qilish usuli aks ettirilishi kerak.

45. Saqlash muddati o‘tib ketgan alohida namunalar yoki sinamalar bojxona laboratoriyasi boshlig‘ining ko‘rsatmasiga binoan ko‘rgazmali o‘quv qurollari yoki laboratoriya muzeyining eksponati sifatida qoldirilishi mumkin.

### 7-bob Yakunlovchi qoida

46. Ushbu Nizom talablarining buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tizimida tovarlarning namunalari va sinamalarini tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi [nizomga](#)  
1-ILOVA

### O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tizimida tovarlarning namunalari yoki sinamalarini tasarruf etish

#### SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Bojxona organlari	Ushbu nizomning 2-bobi talablariga asosan namunalar yoki sinamalar olinib, maxsus qadoqlarda bojxona laboratoriyasiga yuboriladi.	Namunalar yoki sinamalar olingan kuni
2-bosqich	Bojxona organlari	Bojxona laboratoriyasi namunalar yoki sinamalarni ushbu Nizomning 3-bobi talablari asosida qabul qiladi va ekspertiza o‘tkazadi.	Yigirma ish kunigacha
3-bosqich	Bojxona organlari	Namunalar yoki sinamalar va ularning qoldiqlari bojxona ekspertizasini tayinlangan bojxona organiga ushbu Nizomning 4-bobi talablari asosida qadoqlangan holda qaytariladi.	Ekspertiza natijalari asosida xulosa qabul qilingan kuni
1-bosqich	Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan	Ushbu Nizomning 2-bobi talablariga asosan namunalar yoki sinamalar olinib, maxsus qadoqlarda bojxona laboratoriyasiga yuboriladi.	Jismoniy yoki yuridik shaxslar xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan	Bojxona laboratoriyasi namunalar yoki sinamalarni ushbu Nizomning 3-bobi talablari asosida qabul qiladi va ekspertiza o‘tkazadi.	Yigirma ish kunigacha
3-bosqich	Jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan	Namunalar yoki sinamalar va ularning qoldiqlari jismoniy yoki yuridik shaxsga ushbu Nizomning 4-bobi talablari asosida qadoqlangan holda qaytariladi.	Ekspertiza natijalari asosida xulosa qabul qilingan kuni
1-bosqich	Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari	Ushbu Nizomning 2-bobi talablariga asosan namunalar yoki sinamalar olinib, maxsus qadoqlarda bojxona laboratoriyasiga yuboriladi.	Namunalar yoki sinamalar olingan kuni



	<b>qarorlari asosida</b>		
<b>2-bosqich</b>	<b>Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari qarorlari asosida</b>	Bojxona laboratoriyasi namunalari yoki sinamalarni ushbu Nizomning <b>3-bobi</b> talablari asosida qabul qiladi va ekspertiza o'tkazadi.	O'ttiz ish kunigacha
<b>3-bosqich</b>	<b>Surishtiruv, tergov, prokuratura va sud organlari qarorlari asosida</b>	Namunalari yoki sinamalar va ularning qoldiqlari namunalari yoki sinamalarni taqdim etgan organga ushbu Nizomning <b>4-bobi</b> talablari asosida qadoqlangan holda qaytariladi.	Ekspertiza natijalari asosida xulosa qabul qilingan kuni

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tizimida tovarlarning namunalari va sinamalarini tasarruf etish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
2-ILOVA

**Namunalar va sinamalarni tasarruf etish va bojxona ekspertizasini o'tkazish maqsadida zarur sarflash materiallari**

**RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Nomi</b>
1.	Maxsus polimer paket
2.	Og'iz qismi burab yopiladigan shaffof polimer idish va qopqoq
3.	Og'iz qismi keng, burab yopiladigan polimer idish va qopqoq
4.	Og'iz qismi burab yopiladigan shisha idish va qopqoq
5.	Og'iz qismi keng, burab yopiladigan shisha idish va qopqoq

*Izoh. Sarflash materiallarini keltirish har yilgi iste'moldan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.*

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tizimida tovarlarning namunalari va sinamalarini tasarruf etish tartibi to'g'risidagi **nizomga**  
3-ILOVA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT BOJXONA QO'MITASI  
Namunalar yoki sinamalarni olish dalolatnomasi  
Maxsus qadoqning identifikatsiya raqami \_\_\_\_\_**

\_\_\_\_\_shahar \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_  
(dalolatnoma tuzilgan joy)

(bojxona posti kodi va nomi, bojxona posti mansabdor shaxsining F.I.O., mansabi)

\_\_\_\_\_ ishtirokida

(tovarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan shaxsning F.I.O., mansabi, manzili)

\_\_\_\_\_ ishtirokida

(zaharli, toksik, kuchli ta'sir qiluvchi tovarlar uchun mutaxassisning F.I.O., ish joyi, mansabi)

\_\_\_\_\_ (F.I.O., yashash manzili)

\_\_\_\_\_ (F.I.O., yashash manzili)

\_\_\_\_\_ ishtirokida

(namuna va sinamalarni olishga aloqasi bo'lgan boshqa shaxslar)

O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 211-moddasiga muvofiq tadqiqot (ekspertiza) o'tkazish uchun namunalar yoki sinamalar tanlab olindi.

\_\_\_\_\_ (tovarning nomi)  
tegishli tovar \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (tovarga nisbatan vakolatga ega bo'lgan xo'jalik subyektining nomi)  
\_\_\_\_\_ (yoki jismoniy shaxsning F.I.O., pasporti seriyasi va raqami)  
Tovar kelib tushdi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (qaysi transport turida (avia, t/y, avto) va transport vositasining raqami yoki qo'l yuki raqami)  
\_\_\_\_\_ o'ralgan  
\_\_\_\_\_ (qoplarga, qutilarga yoki boshqa idishlarga solingan)  
\_\_\_\_\_ dan kelgan tovar  
\_\_\_\_\_ (xo'jalik subyektining nomi, manzili, eksport qiluvchi mamlakat)  
\_\_\_\_\_ manzilga jo'natilgan  
\_\_\_\_\_ (yukni oluvchi xo'jalik subyektining nomi, manzili, import qiluvchi mamlakat)  
va bojxona rasmiylashtiruviga 20 \_\_\_\_ yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_ da taqdim etilgan.  
Namunalar yoki sinamalar olinishidan oldin yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga bojxona postining mansabdor shaxsi tomonidan namunalar olinayotganda amalga oshiriladigan barcha harakatlarda ishtirok etish huquqi, dalolatnomaga kiritiladigan arizalarni, tushuntirishlarni berishi mumkinligi tushuntirildi.

\_\_\_\_\_ (tanlov ishtirokchilarining F.I.O. va imzosi)  
Namunalar yoki sinamalarni olish quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi  
\_\_\_\_\_ (ochiq, quyoshli, bulutli havoda va boshqalar)  
va \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (tabiiy va sun'iy yoritishlarda)  
\_\_\_\_\_ manzil bo'yicha.  
Namunalar yoki sinamalarni olishda quyidagi ilmiy-texnik vositalar va texnik nazorat vositalari qo'llaniladi.

Ushbu dalolatnoma bo'yicha namunalar yoki sinamalar sifatida quyidagi namunalar yoki sinamalar olindi:

T/r	Namunalar yoki sinamalarning shaxsiy belgilari	O'lchov birligi (kg, l, gr, m <sup>2</sup> , dona va boshqalar)	Namunalar yoki sinamalar soni
1	2	3	4
(To'ldirish bo'yicha misol:)			
1.	Och jigar rangli "Shell" motor moyi, 0,5 l. plastik idishlarda	1	3 but. x 0,5 = 1,5

3 nusxada olindi, namunalar yoki sinamalar \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ o'ralgan  
\_\_\_\_\_ (o'rash turi, yorliqdagi muhr raqami)

Ishtirok etuvchi shaxslarning arizalari, fikr-mulohazalari \_\_\_\_\_

Ma'lumotnoma o'qib chiqildi. Ma'lumotlar to'g'ri yozilgan.

Ishtirokchilar:

\_\_\_\_\_ (imzo, F.I.O.)

\_\_\_\_\_ (imzo, F.I.O.)

\_\_\_\_\_ (imzo, F.I.O.)

\_\_\_\_\_ (imzo, F.I.O.)

Dalolatnomaning nusxasini oldi

\_\_\_\_\_ (imzo, F.I.O.)

Dalolatnomani tuzgan bojxona postining mansabdor shaxsi

\_\_\_\_\_ (imzo)

\_\_\_\_\_ (F.I.O.) (muhr o'rni)

*Ilova: Namunalar yoki sinamalarni olish dalolatnomasi bojxona organi muhri bilan tasdiqlanadi.*

### **Namunalar yoki sinamalarni qadoqlash usullari**

Namunalar yoki sinamalarni qadoqlash olingan namunalar yoki sinamalarni almashtirib qo'yishga yo'l qo'ymaydigan, yorliq yoki o'ramni butunligini ta'minlaydigan usulda amalga oshirilishi kerak.

Shuningdek, namunalar yoki sinamalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mazkur ilovaning **birinchi xatboshi** talablariga javob beruvchi maxsus qadoqlardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak.

Maxsus qadoq — germetik polimer paket bo'lib, uch tomondan yopilgan, faqat bir tomondan namunalar yoki sinamalarni qadoq ichiga solish imkoniyatiga ega. Ushbu paketning og'iz qismi bir martalik o'zi yopishadigan lenta bilan ta'minlangan bo'lib, ushbu lenta paket og'zi yopilgandan so'ng qayta ochish imkoniyatini bermaslikka mo'ljallangan. Paketning ustki yuqori qismida maxsus qadoqning identifikatsiya raqami, markaz qismida namunalar yoki sinamalar to'g'risida ma'lumotlar (nomi, miqdori, ko'rinishi, ogohlantiruvchi belgilar), tovar "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimiga joylashtirilayotganda bojxona posti kodi va nomi, namunalar yoki sinamalar olinganda qatnashgan shaxslarning ismi, familiyasi, imzosi va namunalar yoki sinamalar olingan sanani yozishga mo'ljallangan jadval ko'rinishidagi katakchalar va muhr o'rni mavjud. Maxsus qadoqlarning hisoboti elektron tarzda yuritiladi.

Paketning namunalar yoki sinamalar solinadigan og'iz qismidan namunalar (sinamalar) paket ichiga joylashtirgandan so'ng og'iz qismidagi o'zi yopishadigan lenta yordamida paket og'zi yopiladi. Paketning ustki tomonida namunalar yoki sinamalar to'g'risida ma'lumotlar (nomi, miqdori, ko'rinishi, ogohlantiruvchi belgilar), tovar "erkin muomalaga chiqarish (import)" bojxona rejimiga joylashtirilayotganda bojxona posti kodi va nomi, namunalar yoki sinamalar olingan sana, namunalar yoki sinamalar olinganda qatnashgan shaxslarning ismi, familiyasi yoziladi va namunalar yoki sinamalar olinganda qatnashgan shaxslar o'z ismi, familiyasi to'g'risiga imzo qo'yadi. Ma'lumotlar qo'lyozma shaklida paketga yoziladi.

Tayyor tovarlardan olingan namunalar yoki sinamalar ishlab chiqaruvchining qadoqlari bilan birga, ishlab chiqaruvchining qadoqlari ochilmagan holda maxsus qadoqlarga joylashtirilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan maxsus qadoqlarda, namunalar yoki sinamalarni xususiyatlari va shaklidan kelib chiqqan holda quyidagi o'rash usullaridan foydalaniladi:

1) namunalar yoki sinamalarning qattiq shakllari (gazlamalarning bo'laklari, brusoklar, listlar, plitalar va boshqalar) va sochiladigan turlari (kukunlar, granulalar, qalamchalar va boshqalar) maxsus qadoqlarga to'g'ridan to'g'ri solinadi va mazkur ilovaning **to'rtinchi xatboshi** talablari asosida qadoqlanadi;

2) namunalar yoki sinamalarning suyuq turlari (eritmalar, suyuqliklar, emulsiyalar, suspenziyalar va boshqalar) toza va quruq idishga (yorliq yopishtirilmagan shisha, plastik butilikalarga va flakonchalarga) solinadi va qopqoq bilan berkitiladi (tiqin, qopqoq). Agar olingan nusxa uchib ketuvchi moddalardan iborat bo'lsa, olingan nusxaning parlanib (bug'lanib) ketishining oldini olish maqsadida idishning yuqori qismi toza polimer plenka bilan o'raladi va mustahkam ip bilan bog'lanadi. So'ngra ushbu namunalar yoki sinamalar solingan idish maxsus qadoqlarga solinadi va mazkur ilovaning **to'rtinchi xatboshi** talablari asosida qadoqlanadi.



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ  
ҚАРОРИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ БОЖХОНА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА  
ТОВАРЛАРНИНГ НАМУНА ВА СИНАМАЛАРИНИ ТАСАРРУФ ЭТИШ  
ТЎҒРИСИДАГИ НИЗОМНИ ТАСДИҚЛАШ ҲАҚИДА**

Божхона хизмати органларида божхона экспертизасини ўтказиш тартибини жаҳон стандартларига мослаштириш, намуна ва синама олиш жараёнларини соддалаштириш ҳамда янада такомиллаштириш, тадбиркорлик субъектларига қулай имкониятлар яратиш, шунингдек, мамлакатимизнинг халқаро рейтинглардаги ўрнини яхшилаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

1. Белгилансинки:

а) товарлар намуналарини ёки синамаларини олиш мазкур товарларни идентификациялаш ва Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият товар номенклатурасига биноан товар кодини аниқлаш мақсадларида амалга оширилади;

б) товарлар намуналари ёки синамаларни тасарруф этиш ҳамда божхона экспертизасини ўтказиш учун зарур сарфлаш материаллари давлат божхона хизмати органларининг ҳар йилги истеъмолидан келиб чиққан ҳолда белгиланган тартибда харид қилинади;

в) товарлар намуналари ёки синамалари товар партиясининг таркиби ва хусусиятларини тўлиқ ифодалаши ҳамда олинган намуналар ёки синамалар, шунингдек, маълумотлар ишончлилиги учун қуйидагилар шахсан жавобгар ҳисобланади:

товарлар эркин муомалага чиқариш (импорт) божхона режимига жойлаштирилаётганда — божхона органи мансабдор шахси;

товар жисмоний шахс ёки юридик шахслар томонидан тақдим этилганда — жисмоний шахс ёки юридик шахснинг масъул этиб тайинлаган ходимлари;

намуналар ёки синамаларни олиш суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органлари қарорлари асосида амалга оширилганда — ушбу қарорларда масъул этиб тайинланган шахслар.

2. Ўзбекистон Республикасининг божхона чегарасидан ўтказилаётган товарлардан намуналар ёки синамалар танлаб олиш, уларни божхона лабораторияларига тақдим этиш, тасарруф этиш, сақлаш ҳамда йўқ қилиш тартибини назарда тутувчи Ўзбекистон Республикаси божхона органлари тизимида товарларнинг намуналари ва синамаларини тасарруф этиш тартиби тўғрисидаги низом **иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

3. Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни бир ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирайсин.

4. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг молия-иқтисодиёт ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ўринбосари — иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазири Ж.А. Қўчқоров ҳамда Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси раиси М.Б. Азимов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А. АРИПОВ**

Тошкент ш.,  
2021 йил 17 март,  
145-сон

Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 17 мартдаги 145-сон қарорига  
**ИЛОВА**

**Ўзбекистон Республикаси божхона органлари тизимида товарларнинг намуналари ва синамаларини тасарруф этиш тартиби тўғрисида**

## НИЗОМ

### 1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом Ўзбекистон Республикаси божхона чегарасидан ўтказилаётган товарлардан намуналар ёки синамаларни танлаб олиш, божхона лабораторияларига тақдим этиш, тасарруф этиш, сақлаш ва йўқ қилиш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**божхона лабораторияси** — божхона органлари тизимидаги божхона экспертизасини амалга оширишга мўлжалланган махсус лаборатория;

**ваколатли орган** — қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ тадқиқот (экспертиза) тайинлаш ваколатига эга бўлган суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органлари;

**йўлланма хати** — божхона органи, ваколатли органлар, жисмоний ёки юридик шахслар томонидан тадқиқот (экспертиза) тайинлаш тўғрисидаги ёзма ёки электрон мурожаати;

**намуна** — божхона мақсадлари учун тақдим этилган ёки терговга қадар текширув, суриштирув ҳаракатлари, тергов ва суд жараёнларидаги товар партиясининг таркиби ва хусусиятларини тўлиқ ифодаловчи товар;

**намуналарни ёки синамаларни йўқ қилиш** — намуналар ёки синамаларни товар сифатида белгиланган мақсадларда ишлатишга яроқсиз ҳолатга келтириш (ёқиб юбориш, қўмиб ташлаш ва бошқалар);

**синама** — божхона мақсадлари учун тақдим этилган ёки терговга қадар текширув, суриштирув ҳаракатлари, тергов ва суд жараёнларидаги товар партиясининг таркиби ва хусусиятларини тўлиқ ифодаловчи товарнинг минимал қисми;

**тадқиқот (экспертиза)** — божхона лабораторияси эксперти томонидан фан, техника ва бошқа соҳалардаги махсус билимлар асосида намуналар ёки синамаларни ўрганиш.

3. Намуналар ёки синамалар товарларни идентификациялаш ва Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият товар номенклатурасига (кейинги ўринларда — ТИФ ТН) биноан товар кодини аниқлаш мақсадларида олинади.

Намуналар ёки синамаларни божхона лабораторияларида тасарруф этиш ушбу Низомга **1-иловага** мувофиқ схема бўйича амалга оширилади.

4. Товарлардан намуналар ёки синамаларни олиш усули товар туридан келиб чиққан ҳолда халқаро стандартлар, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар ҳамда улар асосида Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона қўмитаси (кейинги матнларда — Давлат божхона қўмитаси) томонидан ишлаб чиқилган услубга мувофиқ амалга оширилади.

5. Товар намуналари ёки синамаларини тасарруф этиш ҳамда божхона экспертизасини ўтказиш учун зарур сарфлаш материаллари мазкур Низомга **2-иловага** мувофиқ божхона органларининг ҳар йилги истеъмолидан келиб чиққан ҳолда белгиланган тартибда харид қилинади.

### 2-боб. Намуналар ёки синамаларни олиш

#### 1-§. Товар эркин муомалага чиқариш (импорт) божхона режимига жойлаштирилаётганда намуналар ёки синамалар олиш тартиби

6. Тадқиқот (экспертиза) мақсадлари учун эркин муомалага чиқариш (импорт) божхона режимига жойлаштирилаётган товарлардан намуналар ёки синамалар олиш божхона органи бошлиғи томонидан масъул этиб тайинланган божхона органи мансабдор шахси томонидан товарга нисбатан ваколатга эга бўлган шахс, шунингдек, заруратга кўра (заҳарли, токсик, кучли таъсир қилувчи товарлар), мутахассис иштирокида амалга оширилади.

Бунда божхона органи мансабдор шахси намуналар ёки синамалар товар партиясининг таркиби ва хусусиятларини тўлиқ ифодалаш ҳамда олинган намуналар ёки синамалар, шунингдек, маълумотларнинг ишончлилиги учун шахсан жавобгар ҳисобланади.

7. Намуналар ёки синамалар уч нусхада олинади ва мазкур Низомга **3-иловага** мувофиқ шакл бўйича божхона органи мансабдор шахси томонидан учта нусхада намуналар ёки синамалар олиш далолатномаси тузилади. Бунда далолатноманинг:

биринчи нусхаси намуналар ёки синамалар билан биргаликда божхона лабораториясига шу куннинг ўзида юборилади;

иккинчи нусхаси товарга нисбатан ваколатларга эга бўлган шахсга берилади;

учинчи нусхаси тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органида қолдирилади.

8. Намуналар ёки синамаларнинг ҳар бир нусхаси мазкур Низомга **4-иловага** мувофиқ қадоқланади ва махсус қадоқ устидаги жадвал товар тўғрисидаги маълумотлар билан тўлдирилади ҳамда божхона органи мансабдор шахсининг рақамланган шахсий муҳри билан пакетнинг белгиланган қисмига муҳр босилади.

9. Намуналар ёки синамаларни олишда техника хавфсизлиги қоидаларига риоя этилиши бўйича жавобгарлик тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органи бошлиғи ёки ваколатли органнинг масъул ходими ҳамда намуналар ва синамаларни олган шахсининг заммасига юкланади.

### **2-§. Товар жисмоний ёки юридик шахслар томонидан тақдим этилаётганда намуналар ёки синамалар олиш**

10. Жисмоний ёки юридик шахслар томонидан тадқиқот (экспертиза) мақсадларида товарлардан намуналар ёки синамалар олиш жисмоний шахс ёки юридик шахсининг масъул этиб тайинлаган ходимлари томонидан, зарурат юзасидан (заҳарли, токсик, кучли таъсир қилувчи товарлар) эса, мутахассис иштирокида олинади.

Бунда жисмоний шахс ёки юридик шахсининг масъул этиб тайинлаган ходимлари намуналар ёки синамалар товар партиясининг таркиби ва хусусиятларини тўлиқ ифодалаш ҳамда олинган намуналар ёки синамалар, шунингдек, маълумотларнинг ишончлилиги учун жавоб беради.

11. Намуналар ёки синамалар уч нусхада олиниб, йўлланма хати орқали намуналар ёки синамалар билан божхона лабораториясига жисмоний ёки юридик шахс томонидан танланган куни юборилади.

Товар миқдори уч нусхада намуналар ёки синамалар олиш имкониятини бермаса, у ҳолда товардан бир нусхада намуна ёки синама олиниб, йўлланма хати орқали лабораторияга юборилади.

12. Намуналар ёки синамаларнинг ҳар бир нусхаси мазкур Низомга **4-иловага** мувофиқ қадоқланиб, махсус қадоқ устидаги жадвал товар тўғрисидаги маълумотлар билан тўлдирилади ҳамда жисмоний ёки юридик шахсининг масъул этиб тайинлаган ходимлари томонидан имзоланади ва пакетнинг белгиланган қисмига муҳр босилади.

13. Намуналар ёки синамаларни олишда техника хавфсизлиги қоидаларига риоя этилиши бўйича жавобгарлик тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган жисмоний шахс ёки юридик шахсининг масъул этиб тайинлаган ходимлари зиммасига юкланади.

### **3-§. Суриштирув, тергов, прокуратура, суд органлари қарорлари асосида намуналар ёки синамалар олиш**

14. Суриштирув, тергов, прокуратура, суд органлари қарорлари асосида товарлардан намуналар ёки синамалар олиш, ушбу қарорларда масъул этиб тайинланган шахс томонидан ҳолислар, заруратга кўра, мутахассис иштирокида амалга оширилади.

Бунда намуналарни (синамаларни) олган шахс намуналар ёки синамалар товар партияси таркиби ва хусусиятларини тўлиқ ифодалашини таъминлаши шарт ҳамда олинган намуналар ёки синамалар, маълумотларнинг ишончлилиги учун жавоб беради.

15. Намуналар ёки синамалар уч нусхада олиниб, ушбу Низомга **3-иловага** мувофиқ икки нусхада тузиладиган намуналар ёки синамалар олиш далолатномасини қарорда масъул этиб тайинланган шахс расмийлаштиради ҳамда қарорда масъул этиб тайинланган шахс, ҳолислар, шунингдек, заруратга кўра эса, мутахассис томонидан имзоланади.

Бунда далолатноманинг биринчи нусхаси намуналар ёки синамалар билан бирга божхона лабораториясига шу куннинг ўзида юборилади, иккинчи нусхаси қарорда масъул этиб тайинланган шахсга берилади.

16. Намуналар ёки синамаларнинг ҳар бир нусхаси мазкур Низомга 4-иловага мувофиқ қадоқланади ва махсус қадоқ устидаги жадвал товар тўғрисидаги маълумотлар билан тўлдирилади ҳамда қарорда масъул этиб тайинланган шахс, холислар, шунингдек, заруратга кўра, мутахассис томонидан пакетнинг белгиланган қисми имзоланади ва қарорда масъул этиб тайинланган шахснинг муҳри босилади.

17. Намуналар ёки синамаларни олишда техника хавфсизлиги қоидаларига риоя этилиши бўйича жавобгарлик тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган қарорда масъул этиб тайинланган шахсга юклатилади.

### **3-боб. Намуналар ёки синамаларни қабул қилиш**

#### **1-§. Товар эркин муомалага чиқариш (импорт) божхона режимига жойлаштирилаётганда намуналар ёки синамаларни қабул қилиш**

18. Тадқиқот (экспертиза) божхона постининг божхона лабораторияси эксперти томонидан амалга оширилаётган бўлса, намуналар ёки синамалар ушбу Низомга 3-иловага мувофиқ шаклдаги намуналар ёки синамалар олиш далолатномаси билан бирга намуналар ёки синамаларни олган божхона органи мансабдор шахси томонидан божхона постининг божхона лабораторияси экспертига етказилади.

Тадқиқот (экспертиза) Давлат божхона кўмитасининг ёки унинг ҳудудий бошқармаларининг божхона лабораторияси экспертлари томонидан амалга оширилаётган бўлса, тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органининг йўлланма хати, намуналар ёки синамалар ва ушбу Низомга 3-иловага мувофиқ шаклдаги намуналар ёки синамалар олиш далолатномаси билан бирга Давлат божхона кўмитаси ёки унинг ҳудудий бошқармаларининг божхона лабораторияси экспертларига етказилади.

Тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органи ушбу тадқиқот (экспертиза) қайси лабораторияда ўтказилишини кўрсатиб ўтади.

19. Йўлланма хатида қуйидаги маълумотлар:

божхона лабораториясига ҳал қилиш учун кўйилган саволлар;

миқдори кўрсатилган намуналар ёки синамалар рўйхати;

намуналар ёки синамалар қадоқланган махсус қадоқ идентификация рақами;

ҳар бир ҳужжатнинг рақами;

божхона юк декларациясининг 7-графасидаги рақами акс этирилади.

Йўлланма хати тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органининг бошлиғи ёки унинг ўринбосари томонидан имзоланади.

20. Намуналар ёки синамалар божхона пости божхона лабораториясига келиб тушганда, божхона лабораторияси эксперти тақдим этилган намуналар ёки синамалар ушбу Низомга 4-иловага мувофиқ қадоқланганлигини текширади.

Йўлланма хати, намуналар ёки синамалар ва ушбу Низомга 3-иловага мувофиқ шаклдаги намуналар ёки синамалар олиш далолатномаси Давлат божхона кўмитаси ёки унинг ҳудудий бошқармаларининг божхона лабораторияси экспертларига келиб тушганда, материалларни қабул қилиш ва экспертиза материаллари жавобларининг жўнатилишига масъул бўлган шахс томонидан ушбу Низомга 4-иловага мувофиқ экспертизага юборилган ва тақдим этилган материаллар қадоқланганлигини ва мазкур Низомнинг 19-бандида назарда тутилган маълумотларни текшириб чиқади.

Ушбу Низом талабларини бузган ҳолда расмийлаштирилган намуналар ёки синамалар тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органига камчиликларни бартараф этиш учун камчиликлар аниқланган куннинг ўзида қайтарилади.

Тақдим этилган материаллар ушбу Низом талабларига мувофиқ келса, йўлланма хатининг иккинчи нусхасига қабул қилиб олганлик тўғрисида белги қўйилади ҳамда у тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органига қайтарилади.



21. Намуналар ёки синамалар декларация қилинган товарга тегишли бўлмаса, қадокда товарга нисбатан ваколатли шахс имзоси бўлмаса, божхона лабораторияси экспертлари қайтадан намуналар ёки синамалар олишни тайинлаш ҳуқуқига эга, қайтадан намуналар ёки синамалар олиш ушбу Низом билан белгиланган тартибда, мажбурий равишда мутахассис сифатида божхона лабораторияси эксперти иштирок этган ҳолда ўтказилади.

## **2-§. Жисмоний ёки юридик шахслар томонидан тақдим этилган товар намуналарини (синамаларини) қабул қилиш тартиби**

22. Тадқиқот (экспертиза) жисмоний ёки юридик шахслар мурожаатига асосан амалга ошириляётганда, йўлланма хати ва намуналар ёки синамалар Давлат божхона қўмитаси ёки унинг ҳудудий бошқармаларининг божхона лабораторияси экспертларига етказилади.

23. Йўлланма хатида қуйидаги маълумотлар:

божхона лабораториясига ҳал қилиш учун қўйилган саволлар;

миқдори кўрсатилган намуналар ёки синамалар рўйхати;

намуналар ёки синамалар қадокланган махсус қадокнинг идентификация рақами;

намуналар ёки синамалар товарларни таснифлаш бўйича дастлабки қарорни қабул қилиш учун тақдим этилган бўлса, Ўзбекистон Республикаси Божхона кодексининг [371-моддасида](#) белгиланган маълумотлар мажбурий тарзда акс этирилиши керак.

Йўлланма хати тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган жисмоний шахс ёки юридик шахснинг масъул раҳбари томонидан имзоланади.

Йўлланма хати намуналар ёки синамалар билан бирга Давлат божхона қўмитаси ёки унинг ҳудудий бошқармаларининг божхона лабораторияси экспертларига келиб тушганда, материалларни қабул қилиш ва экспертиза материаллари жавобларининг жўнатилишига масъул бўлган шахс томонидан экспертизага юборилган ва тақдим этилган материаллар мазкур Низомга [4-иловага](#) мувофиқ қадокланганлигини ва ушбу Низомнинг [23-бандида](#) назарда тутилган маълумотларнинг тўлиқлигини текшириб чиқади.

Ушбу Низом талабларини бузган ҳолда расмийлаштирилган намуналар ёки синамалар тадқиқотни (экспертиза) тайинлаган жисмоний ёки юридик шахсларга камчиликларни бартараф этиш учун қайтарилади.

Тақдим этилган материаллар ушбу Низом талабларига мувофиқ келган ҳолатларда йўлланма хати белгиланган тартибда қабул қилиб олинади.

## **3-§. Суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органлари қарорлари асосида юборилган товар намуналарини (синамаларини) қабул қилиш тартиби**

24. Суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органларининг қарорлари асосида тайинланган тадқиқотни (экспертизани) Давлат божхона қўмитаси ёки унинг ҳудудий бошқармалари экспертлари амалга ошираётган бўлса, тадқиқотни (экспертиза) тайинлаган органнинг қарори йўлланма хати билан бирга Давлат божхона қўмитаси ёки унинг ҳудудий бошқармалари экспертларига етказилади.

25. Йўлланма хати тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган ваколатли орган раҳбарияти томонидан имзоланади.

26. Суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органларининг қарорларида белгиланган шахс томонидан намуналар ёки синамалар тадқиқот (экспертиза) учун Давлат божхона қўмитаси ёки унинг ҳудудий бошқармалари божхона лабораторияси экспертларига келиб тушганда, намуналар ёки синамалар белгиланган тартибга мувофиқ қадокланганлиги текшириб чиқилади.

Ушбу Низом талабларини бузган ҳолда расмийлаштирилган намуналар ёки синамаларни юборган шахсга камчиликларни бартараф этиш учун қайтарилади.

### **4-боб. Намуналар ёки синамаларни тасарруф этиш**

#### **1-§. «Эркин муомалага чиқариш (импорт)» божхона режимига жойлаштириляётган товарлар намуналари ёки синамаларини тасарруф этиш**

27. Тадқиқот (экспертиза) натижасида товарнинг божхона лабораторияси эксперти томонидан аниқланган ТИФ ТН коди божхона юк декларациясида кўрсатилган кодга мос келса — ижобий экспертиза хулосаси ёки товарнинг божхона лабораторияси эксперти томонидан аниқланган ТИФ ТН коди божхона юк декларациясида кўрсатилган кодга мос келмаса — салбий экспертиза хулосаси берилади. Божхона экспертизаси йигирма иш кунигача бўлган вақтда ўтказилади.

28. Намуналар ёки синамалар, шунингдек, уларнинг физик-кимёвий тадқиқотлар ўтказилгандан сўнг қолган қисмлари (шундай тадқиқот ўтказилган ҳолатда) қуйидаги тартибда тасарруф этилади:

салбий эксперт хулосаси қабул қилинганда — тадқиқ қилиш учун тақдим этилган намуналар ёки синамаларнинг ва уларнинг қолдиқларининг барча нусхалари божхона лабораториясида қолдирилади;

ижобий эксперт хулосаси қабул қилинганда — тадқиқ қилиш учун тақдим этилган намуналар ёки синамалар ва уларнинг қолдиқлари товарга нисбатан ваколатларга эга бўлган шахсга қайтарилади.

29. Қайтарилиши лозим бўлган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқлари тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органи ходимига қадоқланган (муҳрланган) ҳолда экспертиза хулосаси берилган кунинг ўзида қайтарилади ҳамда ушбу мансабдор шахс томонидан йўлланма хатининг иккинчи нусхасига қабул қилиб олганлик ва миқдори тўғрисида белги қўйилади. Белги қўйилган йўлланма хатининг иккинчи нусхаси божхона лабораториясида қолади.

Божхона лабораториясидан олинган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқлари тадқиқотни (экспертизани) тайинлаган божхона органи ходими томонидан товарга нисбатан ваколатларга эга бўлган шахсга қайтарилади.

Агар қайтариб юборилган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқларига тааллуқли тадқиқот (экспертиза) юзасидан такрорий, қўшимча ёки комплекс тадқиқот (экспертиза) ўтказишга эҳтиёж туғилган тақдирда, қайтариб юборилган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқлари сақлаш қоидаларига риоя қилинган (қадоқланган, муҳрланган) ҳолда экспертизага юборилиши шарт.

Қўшимча божхона экспертизаси биринчи (аввалги) божхона экспертизаси хулосасида мавжуд бўлган камчиликларни тўлдириш учун тайинланади ва ўша экспертнинг ўзи ёки бошқа эксперт ёхуд экспертлар комиссияси томонидан ўтказилади.

Хулоса асосланмаганда ёхуд унинг асосидаги далиллар ҳақиқий эмас деб топилганда, такрорий божхона экспертизаси тайинланади.

Божхона экспертизасини экспертлар комиссияси томонидан ўтказиш божхона экспертизасини тайинлаган орган томонидан белгиланади.

30. Божхона лабораториясида қолдирилган намуналар ёки синамалар тегишли божхона органи ёки ваколатли органлар томонидан тайинланган қайта тадқиқот (экспертиза) ўтказишда ишлатилиши мумкин.

## **2-§. Жисмоний ёки юридик шахслар томонидан тақдим этилган товарлар намуналари ёки синамаларини тасарруф этиш**

31. Намуналар ёки синамалар, шунингдек, уларнинг физик-кимёвий тадқиқотлар ўтказилгандан кейин қолган қисмлари жисмоний ёки юридик шахсларга қайтарилади. Божхона экспертизаси йигирма иш кунигача бўлган вақтда ўтказилади.

32. Қайтарилиши лозим бўлган намуналар ёки синамалар ва уларнинг қолдиқлари жисмоний ёки юридик шахснинг масъул ходимига қадоқланган (муҳрланган) ҳолда экспертиза хулосаси берилган кунинг ўзида қайтарилади ва ушбу ходим томонидан йўлланма хатининг иккинчи нусхасига қабул қилиб олганлик ва миқдори тўғрисида белги қўйилади. Белги қўйилган йўлланма хатининг иккинчи нусхаси божхона лабораториясида қолади.

Агар қайтариб юборилган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқларига тааллуқли тадқиқот (экспертиза) юзасидан такрорий, қўшимча ёки комплекс тадқиқотга (экспертизага) эҳтиёж туғилган тақдирда, қайтариб юборилган намуналар ёки синамалар ва

(ёки) уларнинг қолдиқлари сақлаш қоидаларига риоя қилинган ҳолда экспертизага юборилиши шарт.

Қўшимча божхона экспертизаси биринчи (аввалги) божхона экспертизаси хулосасида мавжуд бўлган камчиликларни тўлдириш учун тайинланади ва ўша экспертнинг ўзи ёки бошқа эксперт ёхуд экспертлар комиссияси томонидан ўтказилади.

Хулоса асосланмаганда ёхуд унинг асосидаги далиллар ҳақиқий эмас деб топилганда, такрорий божхона экспертизаси тайинланади.

Божхона экспертизасини экспертлар комиссияси томонидан ўтказиш божхона экспертизасини тайинлаган орган томонидан белгиланади.

33. Бир нусхада олинган (товар миқдоридан келиб чиққан ҳолда имконияти мавжуд бўлмаган) намуналар ёки синамаларнинг тадқиқот ўтказилгандан сўнг қолдиқлари жисмоний ва юридик шахсларга ушбу Низомнинг **32-бандига** мувофиқ қайтарилади.

### **3-§. Суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органлари қарорлари асосида юборилган товарлар намуналари ёки синамаларини тасарруф этиш**

34. Намуналар ёки синамалар, шунингдек, уларнинг физик-кимёвий тадқиқотлар ўтказилгандан кейин қолган қисмлари суриштирув, тергов, прокуратура, суд органлари қарорларида намуналарни тақдим қилишга масъул этиб тайинланган шахсга, яъни намуналарни божхона лабораториясига юборган шахсга қайтарилади. Божхона экспертизаси суриштирув, тергов, прокуратура, суд органлари қарорлари асосида ўттиз иш кунигача бўлган вақтда ўтказилади.

35. Қайтарилиши лозим бўлган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқлари намуна учун масъул этиб тайинланган шахсга қадоқланган (муҳрланган) ҳолда экспертиза хулосаси берилган кунинг ўзида қайтарилади ва ушбу шахс томонидан йўлланма хатининг иккинчи нусхасига қабул қилиб олганлик ва миқдори тўғрисида белги қўйилади. Белги қўйилган йўлланма хатининг иккинчи нусхаси божхона лабораториясида қолади.

Агар қайтариб юборилган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқларига тааллуқли тадқиқот (экспертиза) юзасидан такрорий, қўшимча ёки комплекс тадқиқотга (экспертизага) эҳтиёж туғилган тақдирда, қайтариб юборилган намуналар ёки синамалар ва (ёки) уларнинг қолдиқлари сақлаш қоидаларига риоя қилинган ҳолда экспертизага юборилиши шарт.

Қўшимча божхона экспертизаси биринчи (аввалги) божхона экспертизаси хулосасида мавжуд бўлган камчиликларни тўлдириш учун тайинланади ва ўша экспертнинг ўзи ёки бошқа эксперт ёхуд экспертлар комиссияси томонидан ўтказилади.

Хулоса асосланмаганда ёхуд унинг асосидаги далиллар ҳақиқий эмас деб топилганда такрорий божхона экспертизаси тайинланади.

Божхона экспертизасини экспертлар комиссияси томонидан ўтказиш божхона экспертизасини тайинлаган орган томонидан белгиланади.

### **5-боб. Намуналар ёки синамаларни сақлаш**

36. Божхона лабораториясида қолдирилган намуналар ёки синамалар товарнинг истеъмол идишида кўрсатилган сақлаш (яроқлилик) муддатларига мувофиқ сақланади. Бундай маълумотлар мавжуд бўлмаган тақдирда, уларнинг сақлаш муддатлари товарга тегишли бўлган халқаро стандартлар ва Ўзбекистон Республикаси стандартлари билан белгиланган муддатларни аниқлаган ҳолда, қуйидаги муддатлардан ошиб кетмаган ҳолда сақланади:

божхона лабораториясида салбий эксперт хулосаси қабул қилинса, хулоса берилган санадан бошлаб — 3 йил давомида;

тез бузиладиган озиқ-овқат маҳсулотларининг намуналарини (синамаларини) сақлаш муддати — улар божхона лабораториясига тақдим қилинган вақтдан бошлаб 1 ой давомида;

агар намуналар ёки синамаларнинг яроқлилик муддати божхона лабораториясига топширилгандан бошлаб, ушбу бандда белгиланган сақлаш муддати оралиғида тугаса ва божхона экспертизасида уларнинг қадоқларидаги, ёрлиқларидаги маълумотлардан

фойдаланилган бўлса, у ҳолда ушбу қадоклар ва ёрликлар қолган белгиланган муддатгача сақланади.

37. Худудий божхона бошқарма ва божхона постида намуналар ёки синамаларни сақлаш худудий божхона бошқармалари ва «Тошкент-АЭРО» ихтисослаштирилган божхона комплекси бошлиғининг топшириғига асосан белгиланган моддий жавобгар шахс жавобгарлиги остида амалга оширилади.

38. Давлат божхона кўмитасида намуналар ёки синамаларни сақлаш масъул бошқарма моддий жавобгар шахсининг жавобгарлиги остида амалга оширилади.

39. Намуналар ёки синамалар товарнинг ТИФ ТН коди бўйича таснифланишига таъсир қилувчи кўрсаткичлар ўзгармаслигини таъминловчи, ёнғин хавфсизлигига жавоб берувчи, намликдан ва ташқи муҳитнинг ноқулай омилларидан ҳимояланган шароитларда сақланиши керак.

#### **6-боб. Намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш**

40. Намуналар ёки синамаларни сақлаш муддати тугагач, улар йўқ қилинади.

41. Масъул бошқарма худудий божхона бошқармаси ва божхона постининг масъул шахси ҳар чоракда, ҳисобот чорагидан кейинги ойнинг 15-санасидан кечиктирмасдан, сақлаш муддати ўтиб кетган (агар шундай ҳолатлар бўлса) намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш тўғрисида ушбу масъул бошқарма бошлиғи (пост бошлиғи) номига билдирги беради.

Билдиргида товарнинг номи, сони, божхона лабораториясининг тегишли хулосаси рўйхатга олинган рақами кўрсатилган ҳолда, сақлаш муддати ўтиб кетган намуналар, синамалар рўйхати илова қилинади.

42. Намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш учун масъул бошқарма бошлиғининг (пост бошлиғининг) ёзма кўрсатмасига кўра таркибида камида учта божхона ходимларидан иборат бўлган комиссия тузилади.

43. Намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш усули намуналар ёки синамалар йўқ қилинаётганда вужудга келувчи моддаларнинг атроф-муҳитга таъсири, шунингдек, иқтисодий самарадорлик нуқтаи назаридан келиб чиққан ҳолда тегишли комиссия аъзолари томонидан танланади.

Намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш учун намуналар ва синамаларни ёқиш, парчалаш, майдалаш каби усуллардан фойдаланилади.

44. Комиссия намуналар ёки синамаларни йўқ қилгач, бу тўғрисида ушбу Низомга 5-иловага мувофиқ шаклда намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш тўғрисида далолатнома тузади. Далолатномада ҳар бир намуна (синamani) йўқ қилиш усули акс эттирилиши керак.

45. Сақлаш муддати ўтиб кетган алоҳида намуналар ёки синамалар божхона лабораторияси бошлиғининг кўрсатмасига биноан кўрғазмали ўқув қуроллари ёки лаборатория музейининг экспонати сифатида қолдирилиши мумкин.

#### **7-боб Яқунловчи қоида**

46. Ушбу Низом талабларининг бузилишига айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Ўзбекистон Республикаси божхона органлари тизимида товарларнинг намуналари ва синамаларини тасарруф этиш тартиби тўғрисидаги **низомга**  
1-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси божхона органлари тизимида товарларнинг намуналари ёки синамаларини тасарруф этиш**

#### **СХЕМАСИ**

<b>Босқичлар</b>	<b>Субъектлар</b>	<b>Тадбирлар</b>	<b>Бажариш муддатлари</b>
------------------	-------------------	------------------	---------------------------

1-босқич	Божхона органлари	Ушбу Низомнинг 2-боби талабларига асосан намуналар ёки синамалар олиниб, махсус қадоқларда божхона лабораториясига юборилади.	Намуналар ёки синамалар олинган куни
2-босқич	Божхона органлари	Божхона лабораторияси намуналар ёки синамаларни ушбу Низомнинг 3-боби талаблари асосида қабул қилади ва экспертиза ўтказади.	Йигирма иш кунигача
3-босқич	Божхона органлари	Намуналар ёки синамалар ва уларнинг қолдиқлари божхона экспертизасини тайинлаган божхона органига ушбу Низомнинг 4-боби талаблари асосида қадоқланган ҳолда қайтарилади.	Экспертиза натижалари асосида хулоса қабул қилинган куни
1-босқич	Жисмоний ёки юридик шахслар томонидан	Ушбу Низомнинг 2-боби талабларига асосан намуналар ёки синамалар олиниб, махсус қадоқларда божхона лабораториясига юборилади.	Жисмоний ёки юридик шахслар хоҳишига кўра
2-босқич	Жисмоний ёки юридик шахслар томонидан	Божхона лабораторияси намуналар ёки синамаларни ушбу Низомнинг 3-боби талаблари асосида қабул қилади ва экспертиза ўтказади.	Йигирма иш кунигача
3-босқич	Жисмоний ёки юридик шахслар томонидан	Намуналар ёки синамалар ва уларнинг қолдиқлари жисмоний ёки юридик шахсга ушбу Низомнинг 4-боби талаблари асосида қадоқланган ҳолда қайтарилади.	Экспертиза натижалари асосида хулоса қабул қилинган куни
1-босқич	Суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органлари қарорлари асосида	Ушбу Низомнинг 2-боби талабларига асосан намуналар ёки синамалар олиниб, махсус қадоқларда божхона лабораториясига юборилади.	Намуналар ёки синамалар олинган куни
2-босқич	Суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органлари қарорлари асосида	Божхона лабораторияси намуналар ёки синамаларни ушбу Низомнинг 3-боби талаблари асосида қабул қилади ва экспертиза ўтказади.	Ўттиз иш кунигача
3-босқич	Суриштирув, тергов, прокуратура ва суд органлари қарорлари асосида	Намуналар ёки синамалар ва уларнинг қолдиқлари намуналар ёки синамаларни тақдим этган органга ушбу Низомнинг 4-боби талаблари асосида қадоқланган ҳолда қайтарилади.	Экспертиза натижалари асосида хулоса қабул қилинган куни

Ўзбекистон Республикаси божхона органлари тизимида товарларнинг намуналари ва синамаларини тасарруф этиш тартиби тўғрисидаги **низомга**  
2-ИЛОВА

**Намуналар ва синамаларни тасарруф этиш ва божхона экспертизасини ўтказиш мақсадида зарур сарфлаш материаллари**

**РЎЙХАТИ**

<b>Т/р</b>	<b>Номи</b>
1.	Махсус полимер пакет
2.	Оғиз қисми бураб ёпиладиган шаффоф полимер идиш ва қопқоқ
3.	Оғиз қисми кенг, бураб ёпиладиган полимер идиш ва қопқоқ
4.	Оғиз қисми бураб ёпиладиган шиша идиш ва қопқоқ
5.	Оғиз қисми кенг, бураб ёпиладиган шиша идиш ва қопқоқ

*Изоҳ. Сарфлаш материалларини келтириш ҳар йилги истеъмолдан келиб чиққан ҳолда амалга оширилади.*

Ўзбекистон Республикаси божхона органлари тизимида товарларнинг намуналари ва синамаларини тасарруф этиш тартиби тўғрисидаги **низомга**  
3-ИЛОВА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ДАВЛАТ БОЖХОНА ҚЎМИТАСИ

Намуналар ёки синамаларни олиш далолатномаси  
Махсус қадокнинг идентификация рақами \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ шаҳар 20\_\_ йил «\_\_» \_\_\_\_\_  
(далолатнома тузилган жой)

\_\_\_\_\_ (божхона пости коди ва номи, божхона пости мансабдор шахсининг Ф.И.О., мансаби)  
\_\_\_\_\_ иштирокида

\_\_\_\_\_ (товарга нисбатан ваколатга эга бўлган шахсининг Ф.И.О., мансаби, манзили)  
\_\_\_\_\_ иштирокида

\_\_\_\_\_ (заҳарли, токсик, кучли таъсир қилувчи товарлар учун мутахассиснинг Ф.И.О., иш жойи, мансаби)

\_\_\_\_\_ (Ф.И.О., яшаш манзили)

\_\_\_\_\_ (Ф.И.О., яшаш манзили)  
\_\_\_\_\_ иштирокида

\_\_\_\_\_ (намуна ва синамаларни олишга алоқаси бўлган бошқа шахслар)  
Ўзбекистон Республикаси Божхона Кодексининг 211-моддасига мувофиқ тадқиқот (экспертиза) ўтказиш учун  
намуналар ёки синамалар танлаб олинди.

\_\_\_\_\_ (товарнинг номи)  
тегишли товар \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (товарга нисбатан ваколатга эга бўлган хўжалик субъектининг номи)  
\_\_\_\_\_ (ёки жисмоний шахсининг Ф.И.О., паспорти серияси ва рақами)

Товар келиб тушди \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (қайси транспорт турида (авиа, т/й, авто) ва транспорт воситасининг  
рақами ёки қўл юки рақами)

\_\_\_\_\_ ўралган  
\_\_\_\_\_ (қопларга, қутиларга ёки бошқа идишларга солинган)

\_\_\_\_\_ дан келган товар  
\_\_\_\_\_ (хўжалик субъектининг номи, манзили, экспорт қилувчи мамлакат)

\_\_\_\_\_ манзилга жўнатилган  
\_\_\_\_\_ (юкни олувчи хўжалик субъектининг номи, манзили, импорт қилувчи мамлакат)

ва божхона расмийлаштирувига 20\_\_ йил «\_\_» \_\_\_\_\_ да тақдим этилган.

Намуналар ёки синамалар олинишидан олдин юқорида кўрсатилган шахсларга божхона постининг мансабдор шахси  
томонидан намуналар олинаётганда амалга ошириладиган барча ҳаракатларда иштирок этиш ҳуқуқи, далолатномага  
киритиладиган аризаларни, тушунтиришларни бериши мумкинлиги тушунтирилди.

\_\_\_\_\_ (танлов иштирокчиларининг Ф.И.О. ва имзоси)  
Намуналар ёки синамаларни олиш қуйидаги шароитларда амалга оширилади

\_\_\_\_\_ (очик, қуёшли, булутли ҳавода ва бошқалар)

ва \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ (табиий ва сунъий ёритишларда)

\_\_\_\_\_ манзил бўйича.  
Намуналар ёки синамаларни олишда қуйидаги илмий-техник воситалар ва техник назорат воситалари қўлланилади.

Ушбу далолатнома бўйича намуналар ёки синамалар сифатида қуйидаги намуналар ёки синамалар олинди:

Т/р	Намуналар ёки синамаларнинг шахсий белгилари	Ўлчов бирлиги (кг, л, гр, м <sup>2</sup> , дона ва бошқалар)	Намуналар ёки синамалар сони
1	2	3	4
(Тўлдириш бўйича мисол:)			

1.	Оч жигар рангли «Shell» мотор мойи, 0,5 л. пластик идишларда	л	3 бут. х 0,5 = 1,5
----	---	---	--------------------

3 нусхада олинди, намуналар ёки синамалар \_\_\_\_\_ ўралган

(ўраш тури, ёрлиқдаги муҳр рақами)

Иштирок этувчи шахсларнинг аризалари, фикр-мулоҳазалари \_\_\_\_\_

Маълумотнома ўқиб чиқилди. Маълумотлар тўғри ёзилган.

Иштирокчилар:

\_\_\_\_\_  
(имзо, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_  
(имзо, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_  
(имзо, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_  
(имзо, Ф.И.О.)

Далолатноманинг нусхасини олди

\_\_\_\_\_  
(имзо, Ф.И.О.)

Далолатномани тузган божхона постининг мансабдор шахси

\_\_\_\_\_  
(имзо)

\_\_\_\_\_  
(Ф.И.О.) (муҳр ўрни)

*Илова: Намуналар ёки синамаларни олиш далолатномаси божхона органи муҳри билан тасдиқланади.*



### Намуналар ёки синамаларни қадоқлаш усуллари

Намуналар ёки синамаларни қадоқлаш олинган намуналар ёки синамаларни алмаштириб қўйишга йўл қўймайдиган, ёрлик ёки ўрамни бутунлигини таъминлайдиган усулда амалга оширилиши керак.

Шунингдек, намуналар ёки синамаларнинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, мазкур илованинг **биринчи хатбоши** талабларига жавоб берувчи махсус қадоқлардан фойдаланган ҳолда амалга оширилиши керак.

Махсус қадоқ — герметик полимер пакет бўлиб, уч томондан ёпилган, фақат бир томонидан намуналар ёки синамаларни қадоқ ичига солиш имкониятига эга. Ушбу пакетнинг оғиз қисми бир марталик ўзи ёпишадиган лента билан таъминланган бўлиб, ушбу лента пакет оғзи ёпилгандан сўнг қайта очиш имкониятини бермасликка мўлжалланган. Пакетнинг устки юқори қисмида махсус қадоқнинг идентификация рақами, марказ қисмида намуналар ёки синамалар тўғрисида маълумотлар (номи, миқдори, кўриниши, огоҳлантирувчи белгилар), товар «эркин муомалага чиқариш (импорт)» божхона режимига жойлаштирилаётганда божхона пости коди ва номи, намуналар ёки синамалар олинганда қатнашган шахсларнинг исми, фамилияси, имзоси ва намуналар ёки синамалар олинган санани ёзишга мўлжалланган жадвал кўринишидаги катакчалар ва муҳр ўрни мавжуд. Махсус қадоқларнинг ҳисоботи электрон тарзда юритилади.

Пакетнинг намуналар ёки синамалар солинадиган оғиз қисмидан намуналар (синамалар) пакет ичига жойлаштиригандан сўнг оғиз қисмидаги ўзи ёпишадиган лента ёрдамида пакет оғзи ёпилади. Пакетнинг устки томонида намуналар ёки синамалар тўғрисида маълумотлар (номи, миқдори, кўриниши, огоҳлантирувчи белгилар), товар «эркин муомалага чиқариш (импорт)» божхона режимига жойлаштирилаётганда божхона пости коди ва номи, намуналар ёки синамалар олинган сана, намуналар ёки синамалар олинганда қатнашган шахсларнинг исми, фамилияси ёзилади ва намуналар ёки синамалар олинганда қатнашган шахслар ўз исми, фамилияси тўғрисида имзо қўяди. Маълумотлар қўлёзма шаклида пакетга ёзилади.

Тайёр товарлардан олинган намуналар ёки синамалар ишлаб чиқарувчининг қадоқлари билан бирга, ишлаб чиқарувчининг қадоқлари очилмаган ҳолда махсус қадоқларга жойлаштирилиши керак.

Юқорида келтирилган махсус қадоқларда, намуналар ёки синамаларни хусусиятлари ва шаклидан келиб чиққан ҳолда қуйидаги ўраш усулларида фойдаланилади:

1) намуналар ёки синамаларнинг қаттиқ шакллари (газламаларнинг бўлаклари, брусочлар, листлар, плиталар ва бошқалар) ва сочиладиган турлари (кукунлар, гранулалар, қаламчалар ва бошқалар) махсус қадоқларга тўғридан-тўғри солинади ва мазкур илованинг **тўртинчи хатбоши** талаблари асосида қадоқланади;

2) намуналар ёки синамаларнинг суюқ турлари (эритмалар, суюқликлар, эмульсиялар, суспензиялар ва бошқалар) тоза ва қуруқ идишга (ёрлик ёпиштирилмаган шиша, пластик бутилкаларга ва флакончаларга) солинади ва қопқоқ билан беркитилади (тиқин, қопқоқ). Агар олинган нусха учиб кетувчи моддалардан иборат бўлса, олинган нусханинг парланиб (буғланиб) кетишининг олдини олиш мақсадида идишнинг юқори қисми тоза полимер пленка билан ўралади ва мустаҳкам ип билан боғланади. Сўнгра ушбу намуналар ёки синамалар солинган идиш махсус қадоқларга солинади ва мазкур илованинг **тўртинчи хатбоши** талаблари асосида қадоқланади.

«Тасдиқлайман»

\_\_\_\_\_

(раҳбарнинг лавозими)

\_\_\_\_\_

(Ф.И.О., имзо)

20\_\_ йил «\_\_» \_\_\_\_\_

**Намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш  
ДАЛОЛАТНОМАСИ**

\_\_\_\_\_ шаҳри

20\_\_ йил «\_\_» \_\_\_\_\_

Биз, намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш бўйича қуйидаги таркибда тасдиқланган комиссия аъзолари:

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

(лавозими, Ф.И.О.)

20\_\_ йил «\_\_» \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

(лавозими, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_

(лавозими, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_

(лавозими, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_

(Ф.И.О., яшаш манзили)

\_\_\_\_\_

(Ф.И.О., яшаш манзили)

\_\_\_\_\_

(божхона лабораториясининг номи)

сақланган қуйидаги намуналар ёки синамалар йўқ қилинди.

Намуналар ёки синамаларни йўқ қилиш қуйидаги манзил бўйича амалга оширилади:

Ушбу далолатнома бўйича қуйидаги намуналар ёки синамалар йўқ қилинди:

Т/р	Хулоса рақами ва санаси	Намуналар ёки синамалар номи	Ўлчов бирлиги (кг, л, гр, м <sup>2</sup> , дона ва бошқалар)	Намуналар ёки синамалар сони	Йўқ қилиш услуби

Иштирок этувчиларнинг аризалари, фикр-мулоҳазалари

\_\_\_\_\_

Далолатнома ўқиб чиқилди. Маълумотлар тўғри ёзилган.

Иштирокчилар:

\_\_\_\_\_

(имзо, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_

(имзо, Ф.И.О.)

\_\_\_\_\_

(имзо, Ф.И.О.)

Комиссия бошлиғи

\_\_\_\_\_

(имзо)

\_\_\_\_\_

(Ф.И.О.)

20\_\_ йил «\_\_» \_\_\_\_\_